

## O'ZBEKISTON TEMIR YO'L TRANSPORTI

*Navoiy davlat pedagogika instituti dotsenti*

**Muhammedova Nazokat**

*Navoiy davlat pedagogika instituti talabasi*

**Talabboyeva Mohinabonu**

Temir yo'l transporti – yuk va yo'lovchilarni lokomotiv va motovagonlar vositasida temir yo'l bo'ylab tashiydigan transport turi. Uning paydo bo'lishi yirik sanoat taraqqiyoti, ayniqsa, tog'kon va metallurgiya sanoati taraqqiyoti bilan bog'liq. XVIII-asr oxiri va XIX-asr boshlarida kapitalizmning rivojlanishi yuk aylanmasi tuzilmasini tubdan o'zgartirdi, temir rudasi, ko'mir, qurilish materiallari va shu kabini ommaviy tashishga ehtiyoj o'sdi. O'zbekistonda dastlabki temir yo'l 1886—88 yillarda Zakaspiy temir yo'lining Forob styasidan Samarqandgacha yotqizilgan (podsho Rossiyasi tomonidan imperiyaning jan. chegaralarini mustahkamlashga qaratilgan va harbiystrategik maqsadlardagi Zakaspiy harbiy temir yo'l nomi bilan 1880-yil noyabrdan 1886-yil dekabrgacha kurib bitkazilgan Krasnovodsk — Chorjo'y temir yo'lining davomi). 1888-yil may oyida Amudaryo orkali 2,7 km uzunlikdagi yog'och ko'priki kurib bitkazilishi bilan temir yo'lda Samarqandgacha poyezdlar qatnovi boshlandi. Keyinchalik bu yo'l 1895—97 yillarda Ursatyevskaaya (Xovos) styasidan Qo'qongacha davom ettirildi.

Lovchi temiryo'l reyslari yo'lga qo'yiladi. O'zbekiston temir yo'llari» Aksiyadorlik Jamiyati esa 1994 yil 7-noyabrda O'zbekiston Respublikasi xududida joylashgan sobiq O'rta Osiyo temir yo'llari negizida tashkil etilgan. Jamiyatning asosiy yo'llarining umumiy uzunligi bugungi kunda 7500 kilometrdan oshdi. Jamiyatda 54,7 mingdan ziyod kishi ishlaydi. Jamiyatning yillik yuk aylanmasi barcha turdagi transport yuk aylanmasining 90% ga yaqinini tashkil etadi.

Ichki turizmni rivojlantirish maqsadida Namanganni Buxoro va Samarqand bilan bog'lovchi temiryo'l reyslari yo'lga qo'yiladi. Bu haqda viloyat imkoniyatlarini ishga solish masalalariga bag'ishlangan prezident raisligidagi yig'ilishda ma'lum qilindi.

Yig'ilishda Namangan viloyati maydonining 20 foizi tog'lardan iboratligi tog' turizmini rivojlantirish uchun katta imkoniyat ekani, bunday loyihalarni Pop, Chust, Yangiqo'rg'on, Kosonsoy va Chortoqda amalga oshirish mumkinligi qayd etildi.

Germaniyalik hamkorlar bilan Shahrizabz tajribasi asosida bu tumanlarda tog' turizmini rivojlantirish master-rejasini ishlab chiqish va yil yakunigacha loyihalarni boshlash muhimligi ta'kidlandi.

Yig'ilishda Shavkat Mirziyoyev mahalliy va xorijiy sayyohlar oqimini keskin o'sishi uchun transport sohasida imkoniyatlar to'liq ishga solinmaganini ko'rsatib o'tdi.

Transport vazirligiga bayram kunlari avia va temiryo'l reyslari sonini 2 barobar oshirish, Namangan yoki Farg'onaga uchish grafigini qayta ko'rib chiqib, vodiya har kuni bo'ladigan aviareyslarni ko'paytirish topshirildi.

Ichki turizmni rivojlantirish maqsadida Namanganni Buxoro va Samarqand bilan bog'lovchi temiryo'l reyslari, Namangan—Pop—Chodak yo'nalishida har kuni ekspress yo'lovchi poyezd qatnovi yo'lga qo'yiladi. Har yili avgust oyining birinchi yakshanbasida O'zbekistonda Temir yo'l transporti xodimlari kuni nishonlanadi. Shu munosabat bilan Sputnik O'zbekistonda temir yo'l qurilishining rivojlanish tarixini esga oldi.

O'zbekiston temir yo'llari tarixi 135-yillik tarixga ega bo'lib, uning qurilishining ayrim bosqichlari jahon temir yo'llari taraqqiyoti tarixiga kirgan. Masalan, XIX asrda zamonaviy O'zbekiston hududida temir yo'l yotqizilgan bo'lib, u cho'l va dasht sharoitida qurilgan tarixdagi birinchi temir yo'l bo'lgan. Bular Qoraqum cho'lidan o'tadigan yo'llardir.

Ulug' Vatan urushi yillarida O'zbekistonga temir yo'l orqali 1,5 milliondan ortiq aholi evakuatsiya qilingan. Shuningdek, bu yerga ko'plab korxonalar ko'chirilgan, bu fashistlar Germaniyasi ustidan g'alaba qozonishda muhim rol o'ynadi.

2016 yilda foydalanishga topshirilgan Qamchiq temir yo'l tunneli sobiq SSSR va Markaziy Osiyodagi eng yirik transport inshootidir.

Uning uzunligi 19,2 km. Bu uni dunyodagi eng uzun yer osti inshootlaridan biriga aylantiradi. O'zbekistonda temir yo'llarning rivojlanishi haqidagi ko'proq ma'lumotlar bilan bizning videomizda tanishing.